

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 6, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 6, ISSUE 5



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2023-5>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nodirabegim Tursunova Fayzullo qizi NOMINATSIYANING LINGVISTIK ASPEKTINI O'RGANISH.....	5
2. Turniyozov Behzod Ne'matovich DIAXRONIYADA TURKIY, SLAVYAN, ROMAN VA GERMAN TILLARINING MUNOSABATLARI.....	10
3. O'ralov Elyor Normanovich TILSHUNOSLIKDA NOADABIY FONOGRAFIK UNSURLARNING TADQIQI VA LINGVISTIK TAHLILDAGI O'RNI.....	17
4. Xursanov Dilshod Baxtiyorovich SHE'RIYATIDA HAYOT VA O'LIM KONSEPSIYASI.....	21
5. Sodiqova Yulduz Furqatovna INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TA'LIM YUTUQLARINI BAHOLASH MUAMMOSI VA MEZON ASOSIDA BAHOLASHDAN FOYDALANISH.....	25
6. Уктамova Хилола IX-XVII АСРЛАРДА ЯРАТИЛГАН ИЛМИЙ АСАРЛАРДА КЛАССИК ДАРИЙ ТИЛИ ГРАММАТИКАСИГА ОИД ФИКРЛАР ТАҲЛИЛИ.....	30
7. Хамраева Зебинисо Хайдар кизи ПРОЗАИК СТРОФАНИНГ АНЪАНАВИЙ ТАВСИФИ ВА ТАРКИБИЙ ТУЗИЛИШИ.....	35
8. Boltakulova Gulnoza Farruxovna TURLI TILLAR TIZIMIDA VAQTNI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING KONSEPTUALLASHUVI.....	40
9. Evgeniya Yugay ENHANCING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES (ESP) INSTRUCTION THROUGH CORPUS LINGUISTICS.....	46
10. Farhodova Shahzoda Umidovna, Nasritdinov Ulug'bek Ulmas o'g'li PRINCIPLES OF TEACHING B2 LEARNERS AT LINGUISTIC UNIVERSITIES.....	50
11. Nasimova Muattar Hasanovna, Buranova Nafosat Davronovna ROLE-PLAYING GAMES AS A MEANS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE.....	56
12. Nasirov Davranbek Palvannazirovich ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA VARIABELLIK, VARIATIVLIK HAMDA VARIANTLILIK MUAMMOSI.....	61
13. Qarshiyeva Y.S., Abbosova M.B. XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA TALAFFUZNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI.....	66
14. Abdullayev Asqar Abduhakimovich CONTENTS OF LINGUOPOETIC ANALYSIS OF ARTISTIC TEXT.....	73
15. Bahriddinova Zarnigor Bahodir qizi, Raximova Zulfizar Suxrobovna FUNCTIONAL-SEMANTIC ANALYSIS OF MICROSYSTEMS OF KINSHIP TERMS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	77
16. Saparova Mohira Fayzullayevna LINGVISTIK TEZAURUS YARATISH TAJRIBASIDAN.....	83
17. Yusupova Nargis Ochilovna THE PROJECT METHOD AS A WAY OF ORGANIZING INDEPENDENT WORK.....	88
18. Ibodullayeva Maftuna Habibullayevna, Xandamova Feruza Bahodirovna LEXICAL-SEMANTICAL ANALYSIS OF RELIGIOUS WORDS IN THE WORKS OF WILLIAM SHAKESPEARE.....	92

19. Tashkhujaeva Gulasal Uktam qizi, Abdusamatova Nafisa Berdiyrovna THE IMPACT OF EXTRA-CURRICULAR ACTIVITIES IN LANGUAGE LEARNING.....	99
20. Рузимурадова Нилуфар Рузимурут қизи, Раббимова Мехрибон Равшан қизи ИННОВАТСИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ОРҚАЛИ АРАЛАШ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ.....	104
21. Karimova Shakhnoza Valievna, Ergasheva Nilufar Usar kizi CREATION OF TEACHING MATERIALS FOR YOUNG LEARNERS.....	110
22. Nazarova Nurjahan Bahodirovna OLAM LISONIY MANZARASIDA MIKROTOPONIMLARNING O'RNI.....	116
23. Гулхида Гасанова Абдулазизовна ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СИНОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	120
24. Xamidova Muborak Hafizovna, Ibodova Dilnavoz Namozovna O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA POETONIMLARNING MA'NO MOHIYATI XUSUSIDA.....	126
25. Xoliqova Laylo Faxriddinovna 21-ASR O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA STEM TA'LIMNING ROLI..	135
26. Yarkulova D. M., Akhtamova F.U. LANGUAGE AND SPEECH UNITS, PARADIGMATIC AND SYNTAGMATIC RELATIONS BETWEEN THEM.....	141
27. Tilovova Go'zal Rustamovna O'ZBEK LUG'ATCHILIGI TARIXIGA BIR NAZAR.....	147




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Xamidova Muborak Hafizovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
m.h.xamidova@buxdu.uz

Ibodova Dilnavoz Namozovna,
Buxoro davlat universiteti magistranti
Ibodova@gmail.com

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA POETONIMLARNING MA'NO MOHIYATI XUSUSIDA

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Tilshunoslikda poetonim termini badiiy matnda estetik ta'sirchanlikni ta'minlash, poetikani kuchaytirish maqsadi bilan qo'llangan so'zlarga nisbatan ishlatiladi. Poetonimlarni o'rganuvchi maxsus bo'limni "Poetonimologiya" deb yuritiladi. O'zbek tilshunosligida "poetonimologiya", "deopoetonim" singari terminlarning qo'llangani deyarli kuzatilmaydi, ularning o'rnida ko'proq "badiiy onomastika" termini qo'llaniladi. Chunki ma'no- mohiyatiga ko'ra bu ikkala termin o'zaro ma'nodoshlik hosil qila oladi. Mazkur maqolada poetonimlarning o'zbek va fransuz tillarida an'anaviy shakl va uslublarda ifodalanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tabiat hodisalarining nomlariga e'tibor qaratilgan va ularning ramziy xususiyati aniqlangan. Maqolada fransuz tilining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, poetonimlarning til jihatlar va tabiat hodisalarining ramziy ma'nolari talqini misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tabiat hodisalari, deopoetonim, do'l, yoz yomg'iri, tuman, qish yomg'iri, ayoz, qor.

Хамидова Мубарак Хафизовна,
PhD, Доцент Бухарского государственного университета,
m.h.xamidova@buxdu.uz

Ибодова Дильнавоз Намозовна,
Магистр Бухарский государственный университет
Ibodova@gmail.com

О СУЩЕСТВЕ ПОЭТОНИМА В УЗБЕКСКОМ И ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКАХ

АННОТАЦИЯ

В лингвистике термин поэтоним используется для обозначения слов, используемых в художественном тексте с целью оказания эстетического воздействия и усиления поэтики. Специальная область, изучающая поэтонимы, называется «Поэтонимология». В узбекском языкознании почти не используются такие термины, как «поэтонимология» и «деопоэтоним», вместо этого чаще используется термин «художественная ономастика». Потому что по смыслу

эти два термина могут создавать взаимное значение. В данной статье анализируется выражение поэтонимов в узбекском и французском языках в традиционных формах и стилях. Также уделяется внимание названиям явлений природы и определяется их символическая природа. На основе лингвистических особенностей французского языка на примерах в статье раскрываются лингвистические характеристики поэтонимов и символические характеристики явлений природы.

Ключевые слова: явления природы, поэтоним, град, летний дождь, туман, зимний дождь, мороз, снег.

Khamidova Mubarak Khafizovna,

PhD, Associate Professor of Bukhara State University,
m.h.xamidova@buxdu.uz

Ibodova Dilnavoz Namozovna,

Master's Student of Bukhara State University
Ibodova@gmail.com

THE EXISTENCE OF POETONYM IN UZBEK AND FRENCH LANGUAGES

ANNOTATION

In linguistics, the term poetonym is used to refer to the words used in an artistic text with the aim of providing aesthetic impact and enhancing poetics. A special field that studies Poetonyms is called "Poetonymology". In Uzbek linguistics, terms such as "poetonymology" and "deopoetonym" are almost never used, instead the term "artistic onomastics" is used more often. Because, according to the meaning, these two terms can create mutual meaning. This article analyzes the expression of poetonyms in Uzbek and French in traditional forms and styles. In addition, the names of natural phenomena and their symbolic nature is determined. Based on the linguistic features of the French language, the article reveals the linguistic characteristics of deopoetonyms and the symbolic characteristics of natural phenomena using examples.

Key words: natural phenomena, poetonym, hail, summer rain, fog, winter rain, frost, snow.

KIRISH

Poetonim termini (qadimgi yunoncha ποιητικη – “badiiy san’at” va δνομα – “nom” so’zlaridan olingan bo’lib, badiiy matnda estetik ta’sirchanlikni ta’minlash, poetikani kuchaytirish maqsadi bilan qo’llangan so’zlarga nisbatan ishlatiladi. Tilshunoslikda poetonimlarni o’rganuvchi maxsus bo’lim “Poetonimologiya” deb yuritiladi. Bu termini ilk bor V.M. Kalinkin qo’llagan va tilshunoslikka olib kirgan. Biroq o’zbek tilshunosligida “poetonimologiya”, “deopoetonim” singari terminlarning qo’llangani deyarli kuzatilmadi. Uning o’rnida ko’proq “badiiy onomastika” termini qo’llanilgan. Chunki ma’no- mohiyatiga ko’ra bu ikkala termin o’zaro ma’nodoshlik hosil qila oladi [9; 23-bet].

Poetonimlarning bir necha turi mavjud. Ularning qatorida quyidagilarni sanab ko’rsatish mumkin: Antropoetonimlar (grekcha ανθρωπος – “odam, inson” va poetonim so’zlaridan) – badiiy asar matnida qo’llangan lirik yoki epik qahramonlar, personajlar nomi. Ayni chog’da antropoetonimlarning o’zi yana bir necha ichki ko’rinishlarga bo’linadi: 1. Agiopoetonim (grekcha αγιος – “muqaddas” va poetonim so’zlaridan). Ular badiiy asarda qo’llangan aziz avliyo va anbiyolar nomidir (Ibrohim, Yusuf, Muso, Iso kabi). 2. Teopoetonim (grekcha Θεος – “xudo” va poetonim so’zlaridan). Nasroniylik, yahudiylik, islom kabi monoteistik dinlarda xudo nomlarini ifodalab keladi. (Biru Bor, Yaratgan, Qodir egam kabi). 3. Antromifopoetonim – inson ko’rinishidagi ma’budlar, afsonaviy qahramonlar, odamlarday harakatlanuvchi mifik personajlar nomini bildiradi (Zevs, Xizr, Mitra kabi). Shuningdek, tabiat hodisalari, stixiyali kuchlarning presonifikatsiyasi tufayli kelib chiqqan nomlari ham antromifopoetonim (Chuy momo, Sust xotin kabi) hisoblanadi.

Astropoetonim (grekcha αστηρ – “yulduz”, “sayyora”, “quyosh” va poetonim so’zlaridan) – badiiy matnlarda sayyora, quyosh, oy, yulduz kabi ma’lum bir kosmik obyekt nomining atalishi.

Badiiy asarlarda yulduz turkumlari va galaktika nomlarining qo'llanishi esa kosmopoetonim deb yuritiladi. (Zuhro yulduzi, Somon yo'li, Yetti qaroqchi kabi).

Topopoetonim (qadimgi grechka τῶπος – “o'rin” va poetonim so'zlaridan) – badiiy matnlarda tilga olingan real geografik hududga aloqador o'rin-joy nomlari. Quyidagilar topopoetonimlarning ichki ko'rinishlarini tashkil qiladi: 1. Gidropoetonim (grekcha υδωρ – “suv” va poetonim so'zlaridan) – badiiy matnda tilga olingan suv havzalarining nomi. (Oynako'l, Niagara sharsharasi kabi). Ular topopoetonimlarning keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. 2. Urbapoetonim (latincha urbams – “shahar” va poetonim so'zlaridan) – badiiy asarda qo'llanilgan real hayotda mavjud biror-bir shahar yoki shahar ichidagi ob'ektlarning nomi. (Poykent, Shahrixon, O'rda kabi). Zoopoetonim (grekcha ζῶον – “hayvon” va poetonim so'zlaridan) – badiiy matnda eslab o'tilgan hayvon nomlari. (Mosh, Yo'lbars, Qoranor kabi). Ornitopoetonimlar esa badiiy matnda eslab o'tilgan qushlarning nomlaridir. (Bulbul, lochin, qarg'a kabi). Fitopoetonim (grech. φυτὸν – “o'simlik” va poetonim so'zlaridan) – badiiy matnda qo'llanilgan daraxt va o'simliklar nomi. (Chinor, terak, lola, atirgul kabi) [9; 41-52].

METOD VA TAHLILLAR

Mifopoetonim (grekcha μῦθος – “asotir”, “mif” va poetonim so'zlaridan) – afsonaviy personajlar, xudolar, ma'bud-ma'budalar, maxluqlar, mifologik qahramonlar va jangchilar nomini ataydi. Mifopoetonimlar bir necha ichki ko'rinishlardan iborat:

1. Zoomifopoetonimlar afsonaviy mavjudotlarning nomi yoki hayvonlarning ramziy-timsoliy nomini bildiradi. (Sfinks, uchar ot, oltin shoxli kiyik kabi).

2. Ornitomifopoetonimlar mifologik talqinga ega afsonaviy qushlar nomini yoki qushlarning ramziy-timsoliy nomlarini anglatadi. (Bulbuligo'yo, Semurg', Anqo, Humo kabi).

3. Fitomifopoetonim – badiiy asarda qo'llanilgan afsonaviy daraxt, o'simlik yoki gul nomi. (Hayot daraxti, mehriyoh, jannat guli kabi).

4. Mifodeopoetonimlar – shamol, yomg'ir, chaqmoq, o'lim va hokazo singari tabiiy hodisalarining persinifikatsiyasi tufayli kelib chiqqan nomlar. (Haydar, Ayamajuz, Chuy momo kabi).

5. Mifotopoetonimlar – real gegografik makonda mavjud bo'lmagan o'rin-joy nomlari. (Jannat, do'zax, suv osti mamlakati kabi).

6. Gidromifopoetonim – badiiy matnda tilga olingan, ammo real hayotda mavjud bo'lmagan suv havzalarining nomi. (Havzi Kavsar, Umid bulog'i kabi).

7. Urbanmifopoetonimlar – real hayotda mavjud bo'lmagan shahar va shahar ob'ektlarining nomlari. (Eldarado, Baxt shahri, non shahri kabi). 8. Pragmamifopoetonim – adabiy asar matnida ishlatilgan afsonaviy, moddiy-madaniy narsa-hodisalarining nomi. (uchar likobcha, uchar ketmon, vaqt mashinasi kabi).

Pragmapoetonim (grekcha πρᾶγμα – “ishlar” va poetonim so'zlaridan) – adabiy asar matnida ishlatilgan moddiy madaniyat, ishlab chiqarish, savdo-sotiq ob'ektlari, transport vositalari kabilarning nomi.

Ideopoetonim (grekcha ἰδέα – “g'oya” va poetonim so'zlaridan) – muallif asari (badiiy yoki musiqa asari, rasm, haykaltaroshlik ishi) xayoliy yoki hayotiy tushunchalar asosida nomlanishi. Butparastlik mifologiyasida oliy xudolarning nomlariga ishora qilishi bilan mifopoetonimlar sirasiga ham kiritiladi.

Terasonim (grekcha τέρας – “maxluq” va onim so'zlaridan) – turli yirtqich maxluqlar, monsterlar nomi. (Ajdar, dev, vampir kabi).

Bibliopoetonim (grekcha βιβλίον – “kitob” va poetonim so'zlaridan) – badiiy asarda qo'llangan biror kitob, badiiy asar nomi bo'lsa (O'.Usmonovning “Girdob” romani, Mirmuhsinning “Me'mor” qissasi kabi); biblioxronopoetonim (grekcha βιβλίον – “kitob” va xronopoetonim so'zlaridan) – tarixning ma'lum bir davrida yaratilgan adabiy asar, kitob shaklida taqdim qilingan muayyan davr tarixi nomini anglatadi. (“Avesto”, “Bobur”, “Ulug'bek xazinasi” romanlari kabi) [4; 495].

Xronopoetonim (grech. Χρόνος – “vaqt” va poetonim so'zlaridan) – badiiy asarda ishlatilgan ma'lum bir davrning yoki tarixiy voqea-hodisaning nomi. (Qatag'on davri, jadidchilik kabi). Muallif xronopoetonimi ham bo'lishi mumkin. U badiiy asarda ishlatilgan, ammo real onomastikada aslida

qayd etilmagan, ko‘pincha qaysidir bir tarixiy voqelikka nisbatan qiyosan aniqlash bo‘lgan mumkin qandaydir vaqtinchalik, o‘tkinchi bir davrning nomi. (Fitrating “Hind ixtilolchilari” dramasi, O‘.Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” romani, Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” qissasi kabilar nomi misolida buni kuzatish mumkin).

1. Ekkleziopoetonim (grekcha εκκλησία – “cherkov” va poetonim so‘zlaridan) – badiiy asarda qo‘llangan ibodat, ziyorat qilinadigan joy va ob'ektlar, sig‘iniladigan muqaddas narsalar nomi. (Kechirmas ota ziyoratgohi, sirli tut, orzular daraxti kabi). Muallif ekkleziopoetonimi ijodkor badiiy to‘qimasi hosilasi hisoblanadi.
2. Badiiy asarda qo‘llangan bayramlar nomi eortopoetonim (grekcha 'Εορτη – “bayram” va poetonim so‘zlaridan. Masalan: Navro‘z, Qurbon hayiti kabi) bo‘lsa, badiiy asarda tilga olingan odamlar birlashmalarining nomi esa ergopoetonim (grekcha εργον – “ish” va poetonim so‘zlaridan) deb yuritiladi. (Ipakchilar birlashmasi, yozuvchilar uyushmasi kabi).
3. Deopoetonimlar ham poetonimlardan biri to‘lib, yuqorida ta’kidlaganimizdek, badiiy asarda qo‘llanilgan tabiiy hodisalar nomini anglatadi. Barcha poetonimlar singari ular ham tilda yoki nutqda mavjud bo‘lishiga ko‘ra ikkiga ajratiladi: Tilning onomastika sohasida mavjud bo‘lgan badiiy nomlar.

Muallifning poetik tafakkuri va mahorati orqali yaratilgan muallif poetonimlari. Bular aslida onomastikada qayd qilinmagan nomlardir. Aytaylik, muallif topopoetonimi real bir geografik hududda mavjud bo‘lmagan, muallif tomonidan badiiy to‘qima sifatida qo‘llangan yoki ma'lum bir ko‘chma ma'noda ishlatilgan o‘rin-joy nomidir. Masalan, ko‘ngil ko‘chasi, sehrlil qovunlar mamlakati (bolalar adibi X.To‘xtaboev asarlaridan birining nomi sifatida qo‘llangan) kabilar shular jumlasidandir.

4. Gidropoetonimlar ham real va muallif gidropoetonimlari bo‘lishi mumkin. Masalan, “umid bulog‘i”, “qalb dengizi”, “mehr daryosi” kabilar muallif gidropoetonimlari bo‘lib, real ob'ekt sifatida hayotda kuzatilmaydi. Shuningdek, muallif urbapoetonimi ham ijodkor tomonidan qo‘llangan badiiy asardagi real hayotda aslida mavjud bo‘lmagan biror-bir shahar yoki shahar ichidagi ob'ektning nomidir. Masalan: “Sevishganlar bog‘i” kabi.
5. Ba'zan hatto muallif yaratgan mifopoetonimlar uchraydi. Bunday muallif mifopoetonimlari haqiqiy mifologiyada yo‘q nom esa-da, ammo mifologik dunyoqarashga keng ma'noda aloqadorligi jihatidan o‘quvchi ishonchidan o‘rin olaveradi. Masalan: muzqaymoq tog‘i kabi.
6. Bundan anglashiladiki, poetonimlar ma'nosi, asosan, matn maydoni orqali anglashiladi. Shuning uchun badiiy matn poetonimlarning haqiqiy yashash olami bo‘lib, ularga xos ma'no matn tarkibidagi boshqa so‘zlar bilan aloqasi orqali yuzaga chiqadi.
7. Dunyo tilshunosligida esish va yog‘ish harakati bilan bog‘liq tabiiy ofatlarninggina nomi “anemonimlar” deb yuritilsa-da, o‘zbek tilida bu atama ostida umuman esish va yog‘ingarchilik bilan bog‘liq tabiat hodisalarini ifodalovchi nomlar (otlar) o‘rganilgan. Undan so‘ng bu mavzu yel-yog‘in otlari misolida yanada chuqurroq tadqiq qilingan.
8. Ko‘rinadiki, anemonimlar deganda, tabiiy ofatlar nomi tushunilishi lozim. Jumladan, quyun, bo‘ron, to‘fon, dovul, jala, sel, ko‘chki, vulqon, zilzila kabi. Lekin D.V. Vaqqosova o‘zbek tilidagi oddiy tabiat hodisalari hamda tabiiy ofat nomlariga yaxlit mazmuniy maydonga anemonim deb qarab, ularga aloqador so‘zlar tizimini bitta mikromaydon ko‘rinishida tasniflab ko‘rsatgan. Shu asosda bu maydonga to‘rtta ichki maydoncha so‘zlarini esish, yog‘ish, yonish, silkinish harakatiga muvofiq kelishi jihatidan tasniflagan [11; 18-21].
9. Darhaqiqat, har bir tilning ideografik til tizimida yog‘ish, esish, yonish, silkinish, otilish harakatli tabiat hodisalarini ifodalovchi nomlar bor. Ular, asosan, morfologik jihatdan ot so‘z turkumiga daxldordir. Jumladan, o‘zbek va fransuz tilida ham. Bular quyidagilardir: Esish harakatli tabiat hodisalari nomlari: o‘zbek tilida: shamol, shabada, yel, bod, nasim, bodi sabo, shabboda, yelvizak, bo‘ron, to‘fon, samum, tayfun, to‘zon, dovul, musson, garmsel, izg‘irin, izg‘iriy, quyun, girdibod, uyurma, jinto‘polon, g‘urg‘urak....
fransuz tilida: vent, vent, vent gespille, souffle, petit vent, souffle -brise, vent, courant d’aire, tempête, inondation, samum, typhon, poussière, ouragan, le mousson, vent chaud d’été, ouragan, temps tres froid, tourbillon, ouragan, ouragan, ouragan

NATIJALAR

Sanab ko'rsatilgan ushbu giponim leksemalar uchun "shamol" so'zi giperonim hisoblanadi. A.G'. Aliqulov "O'zbek tilining izohli lug'ati" da esish harakatini ifodalovchi 34 ta so'z mavjudligini, ulardan 20 tasining leksikografik talqinida shamol so'zidan sema ifodalovchisi sifatida foydalanilganini aniqlagan [3; 19]. Uning fikricha, "bevosita esish harakati bilan bog'lanuvchi va o'zaro bir paradigmani tashkil etuvchi so'zlar mikromaydon atamasi uchun yel so'zining qo'llanishi, birinchidan, yel so'zining fonetik strukturasi atama sifatida foydalanish uchun har jihatdan qulaylik tug'dirishi, ikkinchidan, esa uning semantik strukturasi esish harakatini ifodalovchi so'zlar uchun yetakchi, uyushtiruvchi so'z hisoblanishi" tufayli maqsadga muvofiqdir.

2. Yog'ish harakatli tabiat hodisalari nomlari:

o'zbek tilida: yomg'ir, jala, sel, do'l, qor, laylakqor, qorbo'ron, qumbo'ron, toshbo'ron, shudring, qirov, tuman....

fransuz tilida: pluie, pluie torrentielle, inondation, grêle, neige, cigogne neige, tempête de neige, le sable-orage, rocher-orage, rosée, gel, brouillard...

Bu giponim leksemalar uchun "yog'in" so'zi giperonim hisoblanadi. Yog'ish yoki yog'moq harakati asosida hosil bo'luvchi tabiiy hodisalar uchun "yog'" fe'liga "-in" narsa-hodisa nomini hosil qiluvchi ot yasovchi affiks qo'shib kelgan "yog'in" leksemasi umumlashtiruvchi so'z sifatida qo'llanadi. Unga "-garchilik" holat oti yasovchi murakkab qo'chimcha ham qo'shib kelishi mumkin: yog'+in+garchilik kabi. Ba'zan bu hodisaga nisbatan "yog'in-sochin" takror so'zi ham qo'llanadi.

3. Yonish harakatli tabiat hodisalari nomlari:

o'zbek tilida: shu'la, nur, chaqmoq, momaqaldiroq, chaqin, yashin...

fransuz tilida: la lumière, la lumière, la foudre, le tonnerre, la foudre, la foudre....

4. Silkinishharakatli tabiat hodisalari nomlari:

o'zbek tilida: zilzila, girdob, to'lqin...

fransuz tilida: tremblement de terre, vortex, vague...

Bizningcha, tabiatda esish, yog'ish, yonish, silkinish harakatidan tashqari yana chiqish, otilish harakatli tabiat hodisalari nomlari ham bor. Masalan:

5. Chiqish harakatli tabiat hodisalari nomlari:

o'zbek tilida: kamalak...

fransuz tilida: arc en ciel ...

6. Otilish harakatli tabiat hodisalari nomlari:

o'zbek tilida: vulqon

fransuz tilida: volcan

A.G'. Aliqulov tadqiqotida yuqoridagilardan faqat esish va yog'ish harakatli tabiat hodisalari nomlari alohida o'rganilgan. Bu tadqiqotda shunday hodisalarga nisbatan qo'llanuvchi jahon tilshunosligidagi onomastikaga aloqador ilmiy terminlar ishlatilmagan [3; 19].

Shuni ham aytish kerakki, tabiat hodisalari va tabiiy ofatlar nomini ifodalovchi leksemalarni esish, yog'ish, yonish, silkinish, chiqish, otilish harakati bilan bog'liqlikda tasniflash nisbiydir. Negaki, ulardan ayrimlari hosil bo'lishida bir necha harakat turi aralash kuzatiladi. Aytaylik, shudring, tuman garchi osmondan yog'ilsa-da, deyarli "shudring yog'ibdi" deyilmaydi, balki "shudring tushibdi" deb aytiladi. Shuningdek, osmondan yer uzra yog'iladigan qirov va tuman hodisalariga nisbatan ham yog'di deb emas, tushdi yoki qopladi fe'li qo'shib aytiladi: qirov tushdi, tuman tushdi, qirov qopladi, tuman qopladi kabi. A.G'. Aliqulov shuni inobatga olib, "Esish va yog'ish harakatini bildiruvchi leksemalar o'zbek tili leksik tizimida alohida mikromaydon (lug'aviy-ma'noviy guruh) sifatida mavjud bo'lib, ularni shartli ravishda uchga bo'lish mumkin: a) esish harakatini ifodalovchi leksemalar; b) yog'ish harakatini bildiruvchi leksemalar; v) inish harakatini bildiruvchi leksemalar" deb ko'rsatganini ma'qullash lozim [3; 19].

Jala kuchli shamol bilan birga yog'adigan yog'in turi bo'lib, yog'ish va esish harakati birligida hosil bo'ladi. Quyun, uyurma, girdibod, jinnito'polon, toshbo'ron, qumbo'ron singlarlarda ham yog'ish va esish harakati birgalikda yuz beradi. Ularda chang, qum, tuproq, mayda toshlarning shamol bilan yog'ilib kelish holati kuzatiladi. Bu hodisalar "o'ralib harakat qilish" semasiga ega. Shu semasi

bilan ular garchi “shamolga xos” bo‘lsa ham, girdob kabi harakatlanishli suv hodisalariga ma’nosi jihatidan yaqin turadi. Yog‘in hodisalarini ifodalovchi leksik birliklar ko‘pincha sabab-oqibat dialektikasi asosida privativ ziddiyatda bo‘ladi.

Yog‘in – sabab / halqob, loy – oqibat.

Qor – sabab / ko‘chki – oqibat

Izg‘irin – sabab / muz – oqibat

Jumladan, osmondan yog‘ilgan yomg‘ir sababi yer yuzasida halqoblar paydo bo‘ladi, loygarchilik kelib chiqadi. Qor yog‘ishi tufayli esa tog‘larda uyulib qolgan qalin qor uyumlari havo isiy boshlaganda erishi natijasida ko‘cha boshlaydi. Bunday ko‘chkilar inson hayoti uchun juda xavfli hisoblanadi. Izg‘irin sababli yer yuzasi muzlaydi. T.Aliqulov yel-yog‘in otlarini tasniflashda havo oqimining qaysi turi ekanligini ham e’tiborga olgan. Shunga ko‘ra, u namsiz havo oqimi esish harakatini bildiruvchi leksemalarning, namli havo oqimi esa yog‘ish va inish harakatini bildiruvchi leksemalarning kelib chiqqanligini ta’kidlaydi. Ayni paytda tadqiqotchi yana namli havo oqimi asosidagi harakatni ifodalovchi leksemalarni: a) yog‘ish harakatini bildiruvchi leksemalar; b) inish harakatini bildiruvchi leksemalar tarzida ikkiga ajratgan [3; 20].

Ushbu ishning oldingi bobida tabiiy hodisalarning badiiy matnda qo‘llangan nomlari deopoetonimlar deb atalishi ta’kidlandi. Ularni ham turlicha tasniflash mumkin:

I. Fonetik tuzilishi jihatidan bo‘g‘inlar soniga ko‘ra:

1. Bir bo‘g‘inli:

o‘zbek tilida: yel, qor, muz, sel, do‘l...

fransuz tilida: vent gespille, neige, glace, inondation, grêle ...

12. Ikki bo‘g‘inli:

o‘zbek tilida: chaqmoq, yashin, yomg‘ir, nasim, shamol; jala, vulqon...

fransuz tilida: la foudre, éclair, la pluie, petit vent, le vent, pluie torrentielle, volcan ...

13. Uch bo‘g‘inli:

o‘zbek tilida: guldurak, shabada, zilzila...

fransuz tilida: tonnerre, vent, tremblement de terre ...

14. To‘rt bo‘g‘inli:

o‘zbek tilida: jinto‘palon;

fransuz tilida: temps tres froid...

15. Besh bo‘g‘inli:

o‘zbek tilida: momaqaldiroq.

fransuz tilida: tonnerre...

II. Yasalishiga ko‘ra:

1. Tub so‘z:

o‘zbek tilida: yel, nasim, shamol, qor, yomg‘ir, shabada, to‘fon, dovul, sel, jala....

fransuz tilida: vent gespille, petit vent, vent, neige, pluie, vent, tempête, ouragan, inondation, pluie torrentielle....

2. Yasama so‘z:

o‘zbek tilida: qor+bo‘ron, tosh+bo‘ron, chaq+in, chaq+moq...

fransuz tilida: neige + tempête, rocher + tempête, foudre, foudre ...

O‘zbek tilida deopoetonimlar yasalish jihatidan tuzilishiga ko‘ra ham farqlanadi:

1. Sodda yasama so‘z: chaq+in, yog‘+in...

2. Qo‘shma yasama so‘z: qor+bo‘ron, tosh+bo‘ron

III. Deopoetonimlarni tuzilishiga ko‘ra to‘rtga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Sodda so‘z:

a) sodda tubso‘z:

o‘zbek tilida: el, sel, qor, jala...;

fransuz tilida: vent gespille, inondation, neige, pluie torrentielle ...

b) sodda yasama so‘z (affiksasiya, ya’ni so‘zga so‘z yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish usuli bilan shakllangan deopoetonimlar):

o‘zbek tilida: chaq+moq, guldur+ak...

fransuz tilida: foudre, tonnere...

2. Qo'shma so'z (kompozisiya, ya'ni so'zga so'zni qo'shish usuli bilan shakllangan deopoetonimlar):

o'zbek tilida: dengiz+shabada, qor+bo'ron...

fransuz tilida: Brisemarine, mer + vent, neige + tempête ..

Juft so'z:

o'zbek tilida: yog'in-sochin, qor-yomg'ir...

fransuz tilida: precipitations, neige-pluie ...

Takror so'z:

o'zbek tilida: qor-qor o'ynamoq, loy-loy o'ynamoq, shamol-shamol qo'shig'i...

fransuz tilida: jeu neige-neige, jeu boue-boue, chant vent-vent ...

IV. Deopoetonimlar tarixiy va zamonaviy yasalishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Diaxronik yasalishli:

o'zbek tilida: yildirim, izg'or, yashin, momaqaldiroq...

fransuz tilida: éclair, tonnerre, foudre, tonnerre ...

2. Sinxronik yasalishli:

o'zbek tilida: chaq'in, yel+vizak, guldur+ak...

fransuz tilida: tonnere, courant d'aire, tonnere...

T.Adiqulovning fikricha, "el-yog'in otlari sirasida sinxron yasalish mahsuli yo'q. Yasamalarining barchasi tarixiy yasalish bo'lib, sanoqli so'zlarga (seryomg'ir, uyurma) hozirgi tilimiz nuqtai nazaridan yasalgan birlik sanalishi mumkin". Lekin, ko'rinyaptiki, deopoetonimlarga nisbatan bu xulosa mos kelmaydi [3; 19].

Yana shuni ta'kidlash mumkinki, tabiat hodisalari nomi yangi so'z yasalishga asos ham bo'lishi mumkin:

o'zbek tilida: muzqaymoq, yomg'irpo'sh, soyabon....

fransuz tilida: glace, imperméable, parapluie...

Y.Vazifaviy-uslubiy xususiyatlariga ko'ra:

1. So'zlashuv uslubiga xosligi:

o'zbek tilida: jinnito'polon, yax.

fransuz tilida: temps tres froid, la glace.

2. Kitobiy uslubga xosligi:

o'zbek tilida: nasim, sabo, bodi sabo...

fransuz tilida: petit vent, brise, souffle -brise...

YI. Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra:

1. Sinonim, ya'ni ma'nodosh:

o'zbek tilida: yel, nasim, sabo, shamol, shabada, bo'ron, dovul, to'fon...;

Fransuz tilida: vent gespille, petit vent, souffle, vent, vent, tempête, ouragan, tempête ...

Uyurma – katta oqar suvning bir joyda aylanib, tag tomonga harakatini bildiradi. Shu jihati bilan u "girdob" so'ziga sinonim bo'lib keladi.

2. Omonim, ya'ni shakldosh:

o'zbek tilida: qor, yel, chaqmoq, tuman, sel...;

fransuz tilida: neige, vent gespille, foudre, brouillard, inondation ...

1. Antonim, ya'ni zid ma'noli:

o'zbek tilida: shabada – bo'ron...

fransuz tilida: vent-tempête ...

VII. Qo'llanishiga ko'ra:

1. Faol:

o'zbek tilida: shamol, yomg'ir...

fransuz tilida: vent, pluie...

2. Nofaol:

o'zbek tilida: samum, tayfun, girdibod....

fransuz tilida: samum, typhon, ouragan ...

VIII. Onomosiologik-nominasion xususiyatiga ko‘ra. Deopoetonimlar boshqa lug‘aviy birliklar bilan o‘zaro aloqada turli narsa-hodisalar nomiga aylanishi mumkin:

1. Antroponim (shaxs nomlari): Yashin, Yomg‘ir, Bo‘ronbek, Qoryog‘di, To‘lqin...
2. Toponim (geografik ob'ektlar, o‘rin-joy nomi): Bog‘i shamol...
3. Zoonim (hayvonlar nomi): Bo‘ron (it nomi), yomg‘ir chuvalchangi....
4. Mifonim: qorbobo, qorqiz, qorodam, qor malikasi...

Qizig‘i shundaki, ayrim gidronim, toponim, etnonimlar ham anonim yoki deopoetonimlar kelib chiqishiga turtki bo‘lgan. Masalan, Angara daryosi aslida gidronim bo‘lib, undan “Angara shamoli”, Baxmut shahri toponim bo‘lib, undan “Baxmut shamoli”, afg‘on etnonimidan esa “Afg‘on shamoli” nomlari kelib chiqqan.

IX. Lug‘at qatlami (etimologiyasi)ga ko‘ra:

1. O‘z qatlam (asl turkiy so‘zlar):
o‘zbek tilida: qor, yel...
fransuz tilida: neige, ventgespille ...
2. O‘zlashgan qatlam (boshqa tillardan olinma so‘zlar):
o‘zbek tilida: shamol, nasim, bod, girdibod, sabo, tayfun, shtorm...
fransuz tilida: vent, petit vent, brise, tourbillon, soufflé, typhon, tempête...

X. Emosional-ekspressiv jihatiga ko‘ra:

1. Emosional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar:
o‘zbek tilida: jola...
fransuz tilida: pluietorrentielle
2. Emosional-ekspressiv bo‘yoqsiz so‘zlar:
o‘zbek tilida: tuman...
fransuz tilida: brouillard...

XI. Modifikasion semaning kuchli-kuchsiz darajalanishi (gradunomiyasi)ga ko‘ra ikki xil:1. Kuchli darajali.2. Kuchsiz darajali.Tabiat hodisalari nomlari ham graduonimik mohiyatga ega. Chunki ular tezligi, yo‘nalishi, hosil bo‘lish o‘rni, kuchiga qarab bir-birlaridan farq qiladi. Masalan: Shamollar gradunomiyasi: yelvizak, nasim, shabada, yel, shamol, bo‘ron, dovul, to‘fon, shtorm.. Yomg‘irlar gradunomiyasi: yomg‘ir, sel, jala, do‘l... Qor gradunomiyasi: qor, laylakqor, qorbo‘ron.

XULOSA

Tabiat hodisalarining gradunomik qatorini aniqlash, avvalo, ularni ifodalab kelgan so‘z va tushunchalarning umumiy va xususiy belgilarini farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi leksemalar sirasidagi har bir leksemada ma‘lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora mavjudligi anglashiladi. Darajalanish qatorini semantik nuqtai nazardan to‘g‘ri ilmiy hal etish ularni izohli va darajali lug‘atlarda to‘g‘ri, haqqoniy aks ettirish imkonini beradi. Agar yomg‘ir nomlari kuzatilsa, ularning nominasiyalashuvini quyidagi tiplarga ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Tabiiy va sun‘iylikiga ko‘ra: tabiiy yomg‘ir, sun‘iy yomg‘ir.
2. Yog‘ish o‘rni, joyiga ko‘ra: cho‘l yomg‘iri, tog‘ yomg‘iri.
3. Yog‘ish vaqti, mavsumiga ko‘ra: yoz yomg‘iri, tunggi yomg‘ir va h.k.
4. Harorat xususiyatlariga ko‘ra: iliq yomg‘ir, iliq qor.

Demak, shu asosda anemonim va deopoetonimlarning tuzilishi (tashqi shakli)kondensatlangan, ya‘ni kengaytirilgan. Albatta, bunda insonlarning tevarak-atrofdagi tabiiy-iqlim xususiyatlarini kuzatuvlari muhim ahamiyat kasb etganligini inkor qilib bo‘lmaydi. Lekin bunday nominasion birliklarning til va nutq rivojlanishining ichki qonuniyatlariga mos holda so‘z birikmalari ko‘rinishida paydo bo‘lgani e‘tiborlidir. Bunday birliklar, bir tomondan, milliy tilning nutqiy-uslubiy imkoniyatlarini namoyon etsa, boshqa tomondan, ular aholining amaliy faoliyatida tabiat hodisalarini o‘zaro farqlashlari uchun muhim sanaladi.

Shu o‘rinda deopoetonimlar nominasiyaning sintagmatik jihatlari ham e‘tiborni tortadi. Bunda ularning sintaktik va semantik jihatdan birlashgan ikki yoki undan ortiq so‘zlarning bog‘lanishidan kelib chiqqani kuzatiladi. Ko‘pincha ular quyidagi ko‘rinishlarda uchraydi:

1. Sifatlovchi aniqlovchili bitishuvli birikma: iliq shabada (sifat + ot).

2. Qaratqich aniqlovchili moslashuvli birikma: qirg‘oq shamoli (ot + ot).
3. Fe‘lli bitishuvli birikma: shamol esmoq (ot + fe‘l), bo‘ron ko‘tarilmoq (ot+fe‘l).

Xullas, deopoetonimlar tabiat hodisalari, tabiiy ofatlar nomlarining badiiy nutqda voqelanishi hosilasidir. Shuning uchun ular badiiy-estetik vazifalar kasb etadi. Tabiat hodisalari nomi denotativ, konnotativ yoki funksional semalarda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarqulov Abror. French is another door to the world’s scientific and cultural heritage // <http://marifat.uz/marifat/ruknlr/olii-talim/1756.htm>
2. Vaqqosova D.V. Semantic analysis of anonyms in Uzbek language: Philol. fan. nomz ... dis. avtoref. –Fergana, 2005. –22 p.
3. Aliqulov A.G. Lexical-spiritual group «El-Yagin» (system, application and lexicographic interpretation): Philol. fan. nomz. diss... avtoref. – Tashkent, 2011. – 19 p.
4. Annotated dictionary of the Uzbek language. 5 volumes. Volume 1 – T.: “National Encyclopedia of Uzbekistan” State Scientific Publishing House, 2007. –P.495.
5. Sarimsoqov B. Uzbek ceremonial folklore. –T.: Fan, 1986. – 316 p.
6. Ulugbek Hamdam. I don’t know why I am ... / The old world and the new me: don’t choose. - T.: New Age Generation, 2018. – P.170.
7. Ulugbek Hamdam. When it snows ... (Talk) / Old world and new me: selection. T.: New Age Generation, 2018. – P.170.
8. Khamidova Muborak Khafizovna. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 67.
9. DEOPOETONYMS. Khamidova Muborak Khafizovna. Teacher of department of German and French languages, BSU. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА.
10. N.B.Kuldashova. (2023). LE TERME ET LA TERMINOLOGIE. Innovative development in educational activities, 2(6), 41-52.
11. Bafoevna, N. D. (2023). Theolinguistics in Modern Religious Discourse. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(3), 18-21.
12. Narzullayeva, D. (2023). The Main Directions of Theo linguistic Research In Modern Linguistics. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 32(32).
13. Istamovna, A. O. THE AUTHOR IN REVEALING THE ESSENCE OF THE BIOGRAPHICAL METHOD THE PLACE OF IDENTITY. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 83.
14. Adizova, O. (2023). THE IMPORTANCE OF THE BIOGRAPHICAL METHOD IN REVEALING THE ROOTS OF THE WORK OF ART. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 33(33).




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Xoliqova Laylo Faxriddinova,
Samarqand Davlat chet tillar instituti o'qituvchisi
layloholikova390@gmail.com

21-ASR O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA STEM TA'LIMNING ROLI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada STEM ta'limining umumiy ko'rinishi va uning talabalarni o'qituvchilikka tayyorlashdagi ahamiyati muhokama qilinadi, 21-asrda STEM ko'nikmalariga o'sib borayotgan talab tushuntiriladi va STEM ta'limining maqsadi va ahamiyati bayon qilinadi. STEM ta'limining ahamiyati uning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish qobiliyatlarini tamomillshtirishdadir. Ushbu ko'nikmalar nafaqat STEM yo'naliyoshida, balki boshqa ko'plab kasblarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir. Texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan va jahon iqtisodiyoti tobora o'zaro bog'liq bo'lib borar ekan, kuchli STEM ko'nikmalariga ega kadr ga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Kalit so'zlar: STEM ta'limi, fanlararo yondashuv, o'qituvchilarni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va hamkorlikda ishlash.

Холикова Лайло Фахриддиновна,
Преподаватель Самаркандского
государственного института иностранных языки
layloholikova390@gmail.com

ВЛИЯНИЕ STEM-ОБРАЗОВАНИЯ НА ПОДГОТОВКУ УЧИТЕЛЕЙ 21 ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждается обзор STEM-образования и его важность в подготовке студентов к трудовой деятельности, объясняется растущий спрос на STEM-навыки в 21 веке, а также формулируется цель и значение STEM-образования. Важность STEM-образования заключается в его способности способствовать критическому мышлению, решению проблем, творчеству и сотрудничеству между студентами. Эти навыки необходимы не только для успеха в карьере, связанной с STEM, но и во многих других профессиях. Поскольку технологии продолжают развиваться, а глобальная экономика становится все более взаимосвязанной, спрос на людей с сильными навыками STEM растет.

Ключевые слова: STEM-образование, междисциплинарный подход, развитие учителей, критическое мышление, решение проблем, творчество и сотрудничество.